BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ CHOLG‘ULARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Bozorova Nozima Xayrullo qizi

Namangan davlat universiteti

An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrasi

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 2-boqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida musiqiy savodxonlikni shakllantirishda o‘zbek xalq cholg‘ularining pedagogik ahamiyati va o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Milliy cholg‘ularimiz orqali talabalarning musiqiy o‘quvi, ritm hissi, xotirasi va estetik didini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinib, musiqa ta’limi sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa ta'limi, bo‘lajak o‘qituvchi, musiqiy savodxonlik, xalq cholg‘ulari, pedagogik ahamiyat, milliy meros, ritm, nota savodi, dutor, doira, eshitish qobiliyati.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishning bugungi bosqichida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning estetik didini yuksaltirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol toptirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini yuqori saviyada tashkil etish, o‘quvchilarda musiqiy idrokni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mas’uliyatli vazifani amalga oshirish bevosita bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy mahorati, bilimi va musiqiy savodxonlik darajasiga bog‘liqdir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy savodxonligini shakllantirish o‘ta murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat nota yozuvini o‘qiy olish, musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki

amaliy ijrochilik malakalarini ham qamrab oladi.

Ushbu jarayonda xalq cholg‘ularining pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Xalq musiqa ijodiyoti va milliy cholg‘ular asrlar davomida xalqimizning dardi, quvonchi, orzu-umidlari va falsafiy dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan noyob ma’naviy meros hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalariga xalq cholg‘ularini o‘rgatish orqali ularning musiqiy savodxonligini oshirish bir necha muhim pedagogik-psixologik omillarga asoslanadi.

Birinchidan, xalq cholg‘ulari talabalarda milliy musiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Dutor, rubob, doira, g‘ijjak, nay kabi milliy cholg‘ularimiz o‘ziga xos tovush tembri, ijro uslublari va nola-qochirimlarga ega bo‘lib, ular orqali ijro etilgan asarlar talaba ongiga milliy musiqaning butun jozibasini singdiradi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining musiqiy eshitish qobiliyatini (solfedjio) milliy ladlar, xususan, maqom yo‘llari asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalq cholg‘ularida ijro etish jarayoni musiqiy nazariyani amaliyot bilan bog‘lashning eng samarali vositasi sanaladi. Masalan, musiqa nazariyasida o‘rganiladigan intervallar, akkordlar, tonallik va modulyatsiya kabi murakkab tushunchalar xalq cholg‘ulari, aytaylik, qashqar rubobi yoki chang dastasida amaliy tarzda chalib ko‘rilganda, talaba bu nazariy qoidalarni mexanik ravishda yodlashdan ko‘ra, eshitish va his qilish orqali chuqurroq anglaydi. Qolaversa, nota yozuvi va ritmik figuralarni o‘zlashtirishda doira usullari va zarblarining o‘rni beqiyos. Doira cholg‘usi orqali talabalar eng oddiy ritmik o‘lchovlardan tortib, o‘ta murakkab oqsog‘ va aralash o‘lchovlargacha bo‘lgan ritmik tuzilmalarni amaliy tarzda o‘zlashtiradilar, bu esa ularning musiqiy xotirasi va ritm hissini favqulodda kuchaytiradi.

Uchinchidan, xalq cholg‘ularini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarda diqqatni jamlash, iroda, sabr-toqat va intellektual salohiyatni rivojlantiradi. Har bir cholg‘uning o‘ziga xos chalinish texnikasi mavjud bo‘lib, barmoqlar harakatining muvofiqlashuvi

(koordinatsiyasi) miyaning har ikkala yarim shari faoliyatini faollashtiradi. Dutor kabi asboblarda ikki torning barobar chertilishi yoki g‘ijjakda kaman yordamida tovush hosil qilish jarayoni talabadan yuqori darajadagi jismoniy va aqliy uyg‘unlikni talab etadi. Bunday mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagogning kelgusida o‘quvchilar bilan ishlashda kerak bo‘ladigan sabr, qat’iyat va emotsional barqarorlik kabi xislatlarini tarbiyalaydi.

To‘rtinchidan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari maktab amaliyotida o‘quvchilarni xor jamoasi yoki vokal-xoral ishlari orqali tarbiyalashlari kerak bo‘ladi. Xalq cholg‘ulari asosan jo‘rnavozlik (akkoponement) vazifasini mukammal bajaradi. Talaba o‘zi chalayotgan asbobda o‘ziga yoki bolalar xoriga jo‘r bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirishi uning pedagogik mahoratining eng muhim qirrasidir. Cholg‘u asbobida erkin ijro eta oladigan o‘qituvchi dars jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali tashkil qila oladi. O‘quvchilarga qo‘shiq o‘rgatishda quruq fonogrammadan foydalangandan ko‘ra, jonli ijroda, ayniqsa milliy cholg‘ular jo‘rligida dars o‘tish o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini o‘n chandon oshiradi, jonli ijroning energiyasi va kuchi bolalar qalbida musiqaga mehr uyg‘otadi.

Beshinchidan, xalq cholg‘ulari orqali musiqiy savodxonlikni oshirish ta’limda uzviylik va uzluksizlik tamoyilini ta’minlaydi. O‘zbek an’anaviy musiqasida ustoz-shogird an’anasi asrlar davomida shakllanib kelgan mukammal pedagogik tizimdir. Oliy o‘quv yurtlarida xalq cholg‘ularini o‘rganish jarayonida talabalar nafaqat nota savodini, balki shifahi (og‘zaki) an’anadagi professional musiqa ijrochiligining sirlarini, o‘ziga xos xafif, nolish, sayqal kabi bezaklarni o‘rganadilar. Bu bezaklarni faqat qog‘ozdagi nota orqali o‘zlashtirib bo‘lmaydi, balki ustozi yoki cholg‘u sadolariga quloq tutib, yurakdan his qilish orqali erishiladi. Natijada bo‘lajak mutaxassis o‘zbek xalq musiqa san’atining chinakam bilimdoniga, yoshlarga milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdiruvchi ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanadi. Bundan tashqari, bugungi globallashuv davrida turli xil ommaviy madaniyat

xurujlaridan yoshlarni himoya qilish, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytirish har qachongidan ham dolzarbdir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi maktab o‘quvchilariga chet el musiqasini yoki estrada yo‘nalishini emas, eng avvalo, o‘z millatining qon-qoniga singib ketgan xalq kuylarini, o‘zbekona ohanglarni tanishtirishi shart. Buning uchun esa o‘qituvchining o‘zi xalq cholg‘ularida erkin ijro eta oladigan, xalq cholg‘ulari orkestri va ansambllari tarixini, ularning taraqqiyot bosqichlarini mukammal biladigan shaxs bo‘lishi talab etiladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari dasturlarida cholg‘u ijrochiligi, ansambl, dirijyorlik kabi fanlarning o‘qitilishi aynan shu maqsadga qaratilgan. Xalq cholg‘ulari orqali talabalarda ko‘p ovozli musiqani eshitish, partituralar bilan ishlash, ansambl jamoasida o‘z ovozi va o‘rnini his qilish qobiliyatlari shakllanadi. Birgina qashqar rubobi yoki afg‘on rubobi misolida oladigan bo‘lsak, bu asboblarning pardalar tuzilishi, ya'ni xromatik va diatonik tovush qatorlari, talabaning nazariy solfedjio kursida o‘zlashtirgan bilimlari amaliyotda qanday ishlashini yaqqol ko‘rsatib beradi. Natijada, musiqiy savodxonlik tushunchasi shunchaki nazariy bilimlarning yig‘indisi emas, balki jonli ijro, his-tuyg‘u, eshitish va intellektual tahlilning uzviy birlashuviga aylanadi. Shuningdek, talabalarni xalq cholg‘ularida chalishga o‘rgatish ularning ijtimoiy-madaniy faolligini ham oshiradi.

Talabalar turli ko‘rik-tanlovlarda, konsert dasturlarida xalq cholg‘ulari ansambli tarkibida qatnashish orqali sahnada o‘zini tutish madaniyatini, jamoa bilan ishlash mas’uliyatini his etadilar. Bu esa ularga kelajakda o‘zlari faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlardan iborat turli badiiy havaskorlik to‘garaklari, xalq cholg‘ulari ansambllari tashkil etish va ularga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish imkonini beradi. Doira cholg‘usining ijro usullari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u o‘quvchilarda nafaqat ritmik aniqlikni, balki jismoniy sezgini ham rivojlantiradi. Ustozlarimiz aytganidek, usul bu musiqaning yurak urishidir.

Bo‘lajak o‘qituvchi doirada bum va bak zarblarini farqlash, ularni nota chiziqlarida, aniqrog‘i bir chiziqli ritmik tarmoqda qanday yozilishini o‘rganish orqali musiqiy xat-savodning eng tayanch elementlarini o‘zlashtiradi. Dutor cholg‘usi esa o‘zining mayin ovozi bilan inson asab tizimini tinchlantirish, diqqatni bir joyga to‘plash xususiyatiga ega. Ikki torli bu ajoyib asbob orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari garmoniya fanining dastlabki elementlarini, ya’ni ikki ovozlilik (diyafonik) tamoyillarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Dutorning pardalar tuzilishi bevosita o‘zbek xalq qo‘shiqlarining lad asosini tashkil etuvchi tovushqatorlarni o‘zida aks ettiradi. G‘ijjak cholg‘usi o‘zining nola va qochirimlarga boyligi bilan xonandalik mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Talaba g‘ijjak chalayotganda kaman harakatini nazorat qilish orqali to‘g‘ri nafas olish, tovushni uzluksiz chizib borish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida uning vokal-ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Nay cholg‘usi orqali esa puflama cholg‘ularning o‘ziga xos xususiyatlari, nafas yo‘llarining to‘g‘ri shakllanishi, musiqiy iboralarni va frazalarni to‘g‘ri taqsimlash qoidalari o‘zlashtiriladi. Nay ijrochiligi talabaning musiqiy xotirasini kuchaytirib, cholg‘u ohanglari orqali xalqning uzoq o‘tmishi, tabiati va kayfiyatini tasvirlash qobiliyatini rivojlantiradi. Chang cholg‘usi polifonik asbob bo‘lib, uning yordamida talabalar bir vaqtning o‘zida ham melodiya, ham akkordlarni ijro etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa musiqa asarining fakturasini, ya’ni to‘qimasini chuqur tushunishga, musiqiy fikrlash ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari amaliyot davomida shuni anglab yetadilarki, xalq cholg‘ularida dars o‘tish jarayoni oddiy mexanik harakatlar yig‘indisi emas, balki sof ijodiy jarayondir. Talaba cholg‘u sirlarini o‘rganar ekan, u nafaqat ijrochi, balki tadqiqotchi bo‘lishi ham talab etiladi.

Har bir xalq kuyi yoki qo‘shig‘ining yaratilish tarixi, uning zamirida yotgan falsafiy mazmun, kuyning tuzilishi kabi masalalar musiqa tahlili fanining asosini tashkil qiladi va bu bilimlarni talaba aynan xalq cholg‘ulari vositasida eng oson va

ta’sirchan usulda o‘zlashtira oladi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislar uchun musiqiy lug‘at boyligini oshirishda ham xalq cholg‘ularining o‘rni juda katta. Musiqada qo‘llaniladigan xorijiy atamalar bilan bir qatorda, o‘zbek xalq ijrochiligiga xos bo‘lgan rez, nolish, sayqal, kashish, zarb, urim kabi o‘nlab milliy atamalarning ma’nosini chaqish va ularni amalda qo‘llash talabaning haqiqiy ma’nodagi musiqiy savodxonligini belgilab beruvchi omillardandir. Ushbu atamalar va ijro usullari qog‘ozda, quruq nazariy matnlarda o‘zining to‘liq ma’nosini bera olmaydi, ular faqat va faqat cholg‘u asboblari orqali, amaliy ijro jarayonida namoyon bo‘ladi. Pedagogik oliygohlarda talabalarni musiqiy o‘qitish jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishda ham xalq cholg‘ulari muhim ko‘rgazmali qurol vazifasini bajaradi. Axborot texnologiyalari va turli kompyuter dasturlari yordamida xalq kuylarini notalashtirish, ularga zamonaviy ishlovlar berish jarayoni bugungi kun bo‘lajak musiqa o‘qituvchisidan yuksak kompyuter-musiqa savodxonligini talab qilmoqda.

Talaba milliy cholg‘uda chalgan asarini kompyuter xotirasiga kiritish, uning partiturasini yaratish orqali ham an’anaviy, ham zamonaviy musiqiy savodxonlikni birdek egallaydi. Qolaversa, xalq cholg‘ulari vositasida olib boriladigan dars mashg‘ulotlari talabalarning jamoaviy ishlash qobiliyatini, o‘zaro hamjihatlik va hamkorlik ruhini tarbiyalaydi. Orkestr yoki ansambl sinflarida talaba nafaqat o‘z cholg‘usining ovozini, balki sheriklarining, butun orkestrning umumiy sadosini eshitishga, unga moslashishga, dirijyorning har bir ishorasini nozik his qilishga o‘rganadi. Bu tajriba kelajakda umumta’lim maktablarida o‘quvchilardan iborat turli to‘garaklar tashkil etish, xor va cholg‘u ansambllarini boshqarishdek mas’uliyatli vazifani muvaffaqiyatli uddalashda bo‘lajak o‘qituvchiga eng asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati darslarining sifati va samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining amaliy ijro mahoratiga bog‘liq ekanligini hisobga olsak, oliy ta’lim

muassasalarida cholg‘u ijrochiligi faniga ajratilgan soatlar hajmini ko‘paytirish, talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, moddiy-texnik bazani zamonaviy, sifatli xalq cholg‘ulari bilan boyitish kabi masalalar ham o‘z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zero, asbobning sifati, uning tembr jozibadorligi talabaning ijroga bo‘lgan ishtiyoqini oshiruvchi asosiy omillardandir. Chiroyli va toza ovoz chiqaruvchi asbobda mashq qilgan talabaning musiqiy didi ham yuksak bo‘ladi. O‘zbek xalq musiqa merosi, xususan, maqom san’ati va dostonchilik an’analarini kelajak avlodga yetkazishda xalq cholg‘ulari ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu ko‘prikning mustahkam tayanchlari bo‘lishlari lozim.

Ular orqali maktab o‘quvchilari o‘zbek musiqasining sehriy olamiga qadam qo‘yadilar, milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz bilan yaqindan tanishadilar. Bu jarayonda har bir musiqa o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi pedagog, balki milliy qadriyatlarimizni himoya qiluvchi, ularni yoshlar ongi va qalbiga singdiruvchi ma’naviyat elchisiga aylanadi. Shuning uchun ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy savodxonligini shakllantirish jarayonida xalq cholg‘ularining pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, mavjud o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish, bu borada ilg‘or xorijiy tajribalarni ham o‘rganib, ularni milliy xususiyatlarimizga moslashtirgan holda ta’lim jarayoniga tatbiq etish musiqa pedagogikasi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Shu tariqa, milliy cholg‘ularimiz ta’lim tizimining uzviy qismi bo‘lib qolishi va yosh avlodning ma’naviy kamolotida o‘zining munosib hissasini qo‘shishi shubhasizdir. Xalq cholg‘ularining bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tayyorgarligidagi yana bir muhim o‘rni shundaki, ular talabalarda musiqa asarlarini tahlil qilish va ularning g‘oyaviy-badiiy mazmunini to‘g‘ri tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, oddiy xalq termalari yoki lapar va yallalarni tahlil qilishda talaba faqat quruq matn bilan cheklanib qolmasdan, uning kuy ohanglarini, ritmik tuzilishini cholg‘u

asbobida ijro etish orqali his qiladi. Musiqa nazariyasidagi o‘lchov, ritm, temp, dinamika, shtrix kabi tushunchalar cholg‘u asboblarisiz o‘z tasdig‘ini topmaydi.

Bo‘lajak mutaxassis fortepiano kabi klassik asboblar bilan bir qatorda milliy asboblarni ham mukammal bilishi uning dunyoqarashini yanada kengaytiradi va kasbiy kompetentligini oshiradi. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga jadal kirib bormoqda, biroq hech qanday kompyuter texnologiyasi yoki zamonaviy sintezatorlar xalq cholg‘ularining jonli va tabiiy sadosini, uning inson ruhiyatiga ta’sirini to‘liq bera olmaydi. Shu sababli, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari bu haqiqatni chuqur anglab yetishlari, dars berish amaliyotida jonli ijroga, ayniqsa milliy asboblar ijrosiga ko‘proq urg‘u berishlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab to oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda xalq musiqa san’atini targ‘ib qilish, uni yosh avlodga o‘rgatish davlat siyosati darajasidagi masaladir. Bo‘lajak o‘qituvchi esa bu siyosatning asosiy ijrochisidir. Shunday ekan, musiqa o‘qituvchilarining musiqiy savodxonligi, ularning xalq cholg‘ulari sohasidagi bilimlari va amaliy ko‘nikmalari nafaqat bir shaxsning, balki butun bir millatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladigan ulkan omildir.

Xulosa qilib aytganda, xalq cholg‘ulari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy savodxonligini shakllantirishda shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta’lim va tarbiyaning g‘oyat qudratli, ko‘p funksiyali va ajralmas qismidir. Milliy musiqamiz va qadimiy cholg‘ularimiz o‘zida mujassam etgan ulkan pedagogik potensialdan maqsadli va tizimli foydalanish orqali biz nafaqat yuksak malakali, chuqur musiqiy bilimga ega bo‘lgan professional kadrlarni, balki o‘z xalqining boy madaniy merosini sevuvchi va uni kelajak avlodlarga yetkaza oladigan fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashga erishamiz. Talabalarni xalq cholg‘ularida erkin ijro eta olish darajasiga yetkazish, shubhasiz, kelajakda umumta’lim maktablarida musiqa darslarining sifatli o‘tilishini, o‘quvchilarning musiqiy madaniyati yuksalishini ta’minlovchi eng muhim garovdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilov A. "O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi". – T.: "O‘qituvchi", 1995.
2. brohimov O., Sa'diyev S. "Musiqa o‘qitish metodikasi". – T.: "Musiqa", 2010.
3. Karomatov F.M. "O‘zbek xalq cholg‘ulari va cholg‘u kuylari". – T.: "G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1972.
4. Panjiyev Q.B. "Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish". – T.: "Fan va texnologiya", 2014.
5. Shokirkhanov, B. B., & Mahkamjanov, S. Q. O. (2021). The importance of the science of harmony in music practice. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(10), 735-739.
6. Mukhamedovich, R. D. (2022). CULTURE AND ART IS THE EMBODIMENT OF NATIONAL VALUES.
7. Maxkamjanov, S. (2025). INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING MUSIQA O ‘RGATISH NATIJALARIGA TA’SIRI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 428-430.
8. Maxkamjanov, S., & Ibrohimov, A. (2023). NAY CHOLG’USI IJROCHILIK SAN’ATI TARIXI VA RIVOJLANISH JARAYONI. *Инновационные исследования в науке*, *2*(2), 37-40.
9. Ibrohimov, A., & Maxkamjanov, S. (2023). OPERA SAN'ATINING VOKAL JANIRI. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 2, pp. 175-177).
10. Gaziyev, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(9), 467-472.
11. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. *JournalNX*, *9*(11), 8-10.